

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**Sirdaryo viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti**

**«Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim» kafedrası**

**DARS MUQADDAS**

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida  
tayyorlangan dars ishlanmalar to'plami**

**G U L I S T O N - 2 0 1 4**

Mazkur risola Sirdaryo viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti 2014 yil may oyida o'tkazilgan ilmiy kengashda muhokama qilindi va viloyat miqyosida ommalashtirishga, risola sifatida chop etishga ruxsat etildi.

**Muallif: Mohira FAYZIYEVA**

**Nashr uchun mas'ul: Akromjon UZOQOV,  
Tahririy nashr bo'limi boshlig'i**

**Taqrizchilar Abdusalom JONIBEKOV,  
«Maktabgacha va boshlang'ich  
ta'lim» kafedrasi mudiri.**

**Mavluda KULAXMETOVA,  
«Maktabgacha va boshlang'ich  
ta'lim» kafedrasi o'qituvchisi.**

**Mavlyuda SHIRINBAYEVA  
MO'HMM kurs koordinatori**

**Muharrir: Sadoqat FAYZIYEVA  
Tahririy nashr bo'limi  
muhariri.**

**Matn teruvchi: Roziya SAMATOVA,  
SVPKQTMOI operatori.**

*Bilimga chanqoq,  
iste`dodli yoshlarni topib,  
ularni Vatanga fidoiy  
insonlar qilib tarbiyalash  
muqaddas vazifadir.*

*Islom Karimov.*

Kelajagimiz bo'lgan farzandlarimiz sog'lom va barkamol bo'lishsin  
Har bir darsimiz muqaddas bo'lganiday, Vatanimiz muqaddas vatanimiz  
ravnaqi bundanda yuksalsin!

Ma'rifatparvar asrimiz ta'lim tizimining asosiy talablarida xalq  
ta'limi ziyolilaridan ish jarayonida turli yangiliklarni qo'llash, ijod qilish,  
innovatsion metodlardan foydalanish kabi ezgu ishlarni qo'llash  
lozimligini e'tirof etadi.

Kasbiy vazifamiz nuqtay nazaridan kelib chiqib, ko'p yillik ish  
tajribaga ega bo'lgan, el orasida o'zining halol va beminnat mehnatlari  
bilan hurmatga sazovor o'qituvchilar ishini o'rganib chiqib  
ommalashtirishni lozim topdik.

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 13- maktabda boshlang'ich  
sinflarda ko'p yillar davomida faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchi  
Mohira Fayzievaning ish tajribasidan asosidagi Dars muqaddas nomli  
chop ushbu risola fikrimizning yorqin dalilidir.

Risoladagi materiallar Sirdaryo viloyat pedagogik kadrlarni qayta  
tayyorlash va malakasini oshirish instituti «Maktabgacha va boshlang'ich  
ta'lim» kafedrasida o'rganib chiqildi. Undagi metodik materiallar zamon  
ruhiga mosligi, dolzarbligi va mazmundorligi uchun ommalashtirishga  
loyiq deb topildi.

Oila bekaligidan, hayot tashvishlaridan hormay-tolmay, yosh avlod  
ta'lim tarbiyasiga bilimini, kuch-g'ayratini, qalb qo'rini va navqiron  
umrini baxshida etayotgan mahoratli pedagog Mohira Fayzievaning  
boshlang'ich sinflarda Atrofimizdagi olam, Savodxonlik to'garagiga  
hamda Matematika fanlarining dars ishlanmalari va ma'naviy-ma'rifiy  
mavzulardagi tadbirlar dasturlaridan iborat ushbu risolasi, 2014 yil-  
Sog'lom bola yili munosabati bilan kasbdoshlariga va barcha  
risolaxonlarga tuhfa sifatida manzur bo'ladi degan umiddamiz.

## **Mavzu: FOYDALI QAZILMALAR**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga mavzu yuzasidan bilim berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarga foydali qazilmalar va ularning turlari, ijtimoiy mohiyati haqida tushuncha berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Foydali qazilmalarning kundalik hayotimizdagi ahamiyati to'g'risida tushuntirish.

**Dars turi:** Aralash.

**Dars metodi:** Suhbat va hamkorlik.

**Darsning jihozi:** Darslik, mavzuga doir metodik materiallar, rasmlar, rag'bat kartochkalari, buklet va xarita.

**Dars shiori:** Dars - muqaddas.

**Dars qahramonlari;** Boshlovchi, Zakovatxon, Donojon, Oqilbek.

**Darsningborishi:**

**Birinchi bosqich:** - Tashkiliy qism. Darsga tayyorlanish

Sog'lom bola me'yorlarini esga olish.

**O'qituvchi :** Assalomu alaykum aziz bolajonlar! Bugun biz sizlar bilan Foydali qazilmalar mavzusida suhbat o'tkazamiz.

**Shiorimiz:** Barkamollikka intilish.

**Ikkinchi bosqich:** - O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat uyushtiriladi O'quvchilar Cho'o'llar va dashtlar haqidagi bilimlarini o'rtoqlashadilar.

«Gullar tilga kirganda» mavzusida she'riy lahzalar uyushtiriladi.

**Boychechak:**

Men boychechak, boychechak,

Bahordan elchi malak.

Makonim goh cho'l dashtlar,

Qalbimda bahor yashnar.

**Lola:**

Men qip-qizil lolaman,

Quvonchlarda yonaman,

Ko'klamoyning erkasi,

Unga sodiq qolaman.

Shifobaxsh giyohlarga so'z beriladi.

**Isiriq:**

Men isiriq, isiriq,

Bosmanglar uvol qilib,

Shifobaxshman, a'loman,

Ko'p dardlarga davoman,

**Yantoq:**

Men yantoqman qo'rqmangiz,

Sanchilmayman tovonga,

Gulim xushbo'y juda ham,

Ozuqaman hayvonga.

Jismoniy daqiqa: - Sog'lomlashtirish mashqlari.

**Uchinchi bosqich: - Yangi mavzu bayoni.**

O'qituvchi Foydali qazilmalar mavzusini Davlat ta'lim standartlariga mos holda, zamon talablari darajasidagi metodik ko'rgazmalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida bayon etadi.

**To'rtinchi bosqich:** - Mavzuni mustahkamlash uchun sinf o'quvchilari guruhlariga ajratiladi. Guruhlarga quyidagicha nomlar beriladi.

1-qator. "Zakovat" guruhi

2--qator. "Dono" guruhi.

3-qator. "Oqil" guruhi.

**Zakovat:**

Zakovatxon ismimdir,

Go'zal, dono ijismimdir.

Mahoratli qizchaman,

Saodatli qizchaman.

**Donojon:**

O'zim dono bolaman,

Ko'p narsani bilaman,

Sidqidildan do'stlarga,

Yaxshiliklar qilaman.

**Oqilbek:**

Ham aqlli, odobli,

Tartibli, intizomli.

Men hammaga yoqaman,

So'zlarim ehtiromli.

Yangi mavzu yuzasidan suhbat uyushtiriladi.

Zakovat qizimiz savollar tarqatadi.

**1-o'quvchi:** Tabiiy gaz- Buxoroda qazib olinadi.

**2-o'quvchi:** Qimmatbaho qazilmalardan oltin, mis, kumushni bilaman.

**3-o'quvchi:** Ko'mir, torf, tabiiy gaz yonuvchi foydali qazilmalardir.

**4- o'quvchi:** Rudali foydali qazilmalarga oshtuzi, oltingurgurt vash u kabilar kiradi.

**5- o'quvchi:** norudali foydaliga qazilmalarga minerallar va metallar kiradi. :

**6-o'quvchi:** Tabiiy jarayonlar natijasida sodir bo'ladigan tog' jinslari oltingurgurt, granit, kvars, neft va shu kabilar.

**7-o'quvchi:** Qora metallarga; cho'yan va temirni misol keltirish mumkin.

**8-o'quvchi:** Rangli metallar deganda, alyuminni, misni va oltinni tushunamiz.

**9-o'quvchi:** Foydali qazilmalar qazib olinadigan joy shaxta deyiladi.

**Beshinchi bosqich: - Baholash.**

O'quvchilar bilim va mahoratlariga qarab, rag'atlantiriladi.

**Daftarda ishlash.** Mavzu yuzasidan o'rganilgan so'zlar lug'atini tuzish.

**Dars yakuni:** O'quvchilar bilimini baholash va g'oliblarni rag'batlantirish.

**Uyga qazifa:** Foydali qazilmalar mavzusini o'qib kelish.

**Savodxonlik to'garagi**

## **Mavzu: Bo'g'inlar ustida ishlash**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga mavzu yuzasidan tushuncha berish. Bilimlarini mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarning so'z boyligini oshirish. «la» qo'shimchasi bilan tugagan so'zlar lug'atini tuzish.

**Dars turi:** Yangi bilim berish. berish.

**Dars tipi:** Noan'anaviy. Klasster

**Dars jihozi:** Mavzuga doir metodik materiallar, ko'rsatmali vositalar, darslik, kesma bo'g'inlar, bo'g'inlar yig'ma jildi.

**Dars qahramonlari:** Gulxanjon, G'unchaoy, Alpomish va Barchinoy

**Darsning borishi.**

**Birinchi bosqich: - Tashkiliy qism:** Darsga tayyorlanish.

**Sog'lom bola me'yorlarini esga olish.**

**O'qituvchi:**

Assalomu alaykum,

Bolajonlar bormisiz?

Bugungi darsimizga,

Chin dildan tayyormisiz?

**Bolalar:**

Ustozlar sizga ming rahmat,

Berdingiz qalb qo'ringiz.

Bizlar shod, baxtiyormiz,

Siz ham omon bo'lingiz.

**Shiorimiz:** Yop-yorug' maktablarda,

O'qib bilim olamiz.

Ulg'ayganda Vatanga,

Sodiq farzand bo'lamiz.

**Ikkinchi boqich: - O'qituvchi:** Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan -la bo'g'ini bilan tugagan so'zlar mavzusida darsni takrorlaymiz. Mavzu o'qituvchi tomonidan bayon etiladi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Guruhlarga quyidagicha nom beriladi.

**1- «Alpomish» guruhi.**

Biz istiqlool bog'ida,

Gullar kabi yashnaymiz.

«Alpomish» avlodimiz,

Olg'a qadam tashlaymiz.

**2.«Barchinoy» guruhi.**

Biz Vatan osmonining,

Yulduzlari oylari.

Barchani maftun etgan,

Elning Barchinoylari.

«Dor» bo'g'ini bilan tugaydigan so'zlar lug'atini tuzish. Sardor, Dildor, Eldor, Yodgor, Xoldor. Sherdor kabilar.

**Uchinchi bosqich.** Yangi mavzu bayoni.

Dala – chayla – yayla - malla – alla -yalla

**To'rtinchi bosqich:**

Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshirish maqsadida –«la» qo'shimchasi bilan tugagan so'zlar lug'ati ustida guruhlararo musobaqa uyushtiriladi.

**Alpomish guruhi**

guruhlarga topshiriq: 5 daqiqa davomida yangi mavzuga doir 10 ta so'z aytish. Kuyla, o'yla, bo'yla, so'yla, izla, g'alla, so'zla, ko'zla, sizla, tuzla.

**Barchinoy guruhi**

guruhlarga xuddi shunday topshiriq beriladi., Alla, malla, pila, tilla, chilla, salla, g'alla, kalla.

Bu o'yin jarayonida Alpomish guruhi g'olib sifatida rag'batlantiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun dars qahramoni G'unchaoyga so'z beriladi.

**G'unchaoy:** Kelinglar do'stlar ayrim so'zlarning ma'nosini tahrir qilamiz.

**1-o'quvchi:** Alla -hayot qo'shig'i.

**2-o'quvchi:** Malla –hayvonlarga qo'yiladigan nom.

**3-o'quvchi:** G'alla –bug'doy, arpa va shu kabilar.

**4-o'quvchi:** Yalla -musiqa guruhining nomi.

**5-o'quvchi:** Tilla-qimmat baho buyum.

**6-o'quvchi:** Pilla –ipak qurti.

**7-o'quvchi:** Chilla – qishning eng sovuq payti.

Yozningeng issiq payti 40 kun davom etadigan eng issiq kunlari.

**Beshinchi bosqich:-** Baholash

Shu tariqa qolganlar bilan o'yin davom etaveradi oxirigacha avtobusda qolgan qolgan o'quvchi «5» ball bilan, undan oldingisi «4» ball bilan, undan oldingisi «3» ball bilan rag'batlantiriladi.

**Dars yakuni o'quvchilarning faoliyatini izohli baholash.**

**Oltinchi bosqich. Uyga vazifa.**

“La” qo'shimchasi bilan tugagan so'zlar ishtirokida 10 tadan gap tuzib kelish.

## **Savodxonlik**

**Mavzu: Bo'g'ini bir xil bo'lgan so'zlar ustida ishlash**

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini boyitish, lug'at boyligini oshirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarning mustaqil, ijodiy, erkin fikrlashga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Nutq boyligini oshirib, bo'g'inlar ishtirokida bo'g'ini bir xil bo'lgan so'zlar tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

**Dars turi:** So'rov

**Dars tipi:** Mantiqiy fikrlash:

**Dars jihozi:** Darslik mavzuga doir metodik materiallar; kesma harflar, bo'g'inlar rasmlar, rag'bat kartochkalari va shu kabilar...

**Dars qahramonlari:** Boshlovchi, Fozil, Komil, Kamolot

**Darsning borishi:**

**Birinchi bosqich:** - Tashkiliy qism.

Sog'lom bola me'yorlarini esga olish.

**Ikkinchi bosqich. O'qituvchi:** Assalomu alaykum, aziz bolajonlar hozir sizlar savodxonlik darsimizni boshlaymiz. Darsimizga hammalaring faol ishtirok etasizlar va yaxshi baholar olish sharafiga muyassar bo'lasizlar degan umiddaman.

Qani aytinglar-chi bugungi darsimizning shiori qanday bo'ladi?

**Jismoniy daqiqa:** -

Sog'lomlashtirish mashqlari.

**O'quvchilarni guruhlariga bo'lish:**

"Komil" guruhi

"Fozil" guruhi

"Kamolot" guruhi

"So'z ichidan so'z tuzish" Didaktik o'yini

1-Qator "Komil" guruhi-"Muzqaymoq" so'zi

2-Qator "Fozil" guruhi-"lolaqizg'aldoq" so'zi

3-Qator "Kamolot" guruhi-"Ko'hinur" so'zi

**Didaktik o'yin sharti:** So'z ichidan so'zlar tuzish

"Komil" guruhi-"Muzqaymoq" so'zi.

Muz, qaymoq, maymoq, oq, qum, momo, yamoq, zum, uzum, oqmomo, qoya, yuz, quyum, aya, ayoq.

"Fozil" guruhi -"Lolaqizg'aldoq" so'zi.

Lola, olla, g'alla, alla, izla, qiz, dada, dala, dog',qoziq, qozi, og'iz, oziq, qo'l, qoq, Aziz, Laziz.

"Kamolot" guruhi-"Ko'hinur" so'zi.

Kohin, nur, kon, ruh, oh, o'n, o'r, on, ko'k, ikki, ukki, ko'rik, o'rik.

"Kim g'olib" didaktiko'yini.

"Fozil" guruhi "Lolaqizg'aldoq" so'zi ichidan 17 ta so'z topib tuzishdi.

"Komil" guruhi "Muzqaymoq" so'zi ichidan 15 ta so'z topib tuzishdi.

"Kamolot" guruhi "Ko'hinur" so'zi ichidan 13 ta so'z topib tuzishdi.

Bu didaktik o'yinda "Fozil" guruhi g'olib chiqdi.

**Uchinchi bosqich:** - Yangi mavzu bayoni: (O'qituvchi bolalarga yangi mavzu yuzasidan bilim beradi.)

"So'z" o'yini-bo'g'ini bir xil bo'lgan so'zlar ustida ishlash.

"Komil" guruhi "Alla" so'zini oldingi harifini o'zgartirib yangi so'z hosil qilish.

Alla, g'alla, kalla, salla, challa, yalla, malla

"Fozil" guruhi "Ola" so'zini oldingi harflarini o'zgartirib yangi so'z hosil qilish..

Ola, lola, bola, tola, nola, xola.

"Kamolot" guruhi "Tilla" so'zini oldingi harflarini o'zgartirib yangi so'z hosil qilish.

Tilla, pilla, chilla, xilla, milla, silla.

"Kim g'olib" didaktik o'yini o'tkazilib "Komil" guruhi g'olib deb topildi varag'batlantirildi.

**To'rtinchi bosqich:** Yangi mavzuni mustahkamlash.

Boshlovchi: Endi sizlar bilan «Zakovat» bahsini o'tkazamiz. Savol-javob uyushtiriladi. Ng birikmali so'zlar tuzing.

1-o'quvchi: Rang, chang, ong, bong, tong, o'ng, so'ng.

O'qituvchi: Rahmat bolajonlar. endi daftaringizga shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzib, o'qib bering.

2-o'quvchi. Ustoz, men maqol aytsam maylimi?

O'qituvchi: Marhamat, Rang ko'r, hol so'r.

O'qituvchi: Rahmat juda yaxshi.

3-O'quvchi: Chang inson salomatligi uchun juda zararli.

4-o'quvchi: Ong inson hyotini boshqari turadi.

5-o'quvchi: Tong tabiatning eng guzal payti.

6-o'quvchi: Ovqatni o'ng qo'lda eyish kerak. Savol-javob shu tarzda davom etadi.

O'qituvchi: Rahmat bolajonlar bugungi darsimiz juda mazmunli o'tdi degan fikrdaman.

**Beshinchi bosqich.** O'quvchilar ijodiy salohiyatiga qarab rag'batlantirish va baholash.

**Oltinchi bosqich:** Uyga vazifa:

Mavzuga doir so'zlar lug'atini tuzish. Daftarlariga bir xil bo'g'inli so'zlar topib yozish.

## Ona tili

**Mavzu: Kim? nima? kimlar? nimalar?**  
**so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga mavzu yuzasidan bilim berish. Bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Kim? kimlar? Nima? Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlash.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi :** Shaxs va narsalarni

farqini mazmunan anglash. So'roqlar yordamida so'zlar va gaplar tuzish.

**Dars turi:** Yangi bilim berish.

**Dars tipi:** Noan'anaviy, suhbat.

**Dars jihozi:** Darslik va mavzuga doir metodik maeriallar. ko'rgazma, al'bom, buklet, "Kasblar olami" nomli rasmlar to'plami .

**Darsning borishi:**

**Birinchi bosqich: - Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga tayyorlash. O'y vazifasini so'rash, savol-javoblar asosida mavzuni umumlashtirib, mustahkamlash.

**Ikkinchi bosqich: - O'tilgan mavzu: Shaxs va narsalarning nomini bildirgan so'zlarasosida** "Zanjir" didaktik o'yinini o'ynash.

O'quvchilarni guruhlariga bo'lish va ularni nomlash.

Birinchi qator "**A'lo**" guruhi.

Ikkinchi qator "**Dono**" guruhi.

Uchinchi qator "**Oqil**" guruhi .

Kartochkalar asosida ishlash. Guruhlarga topshiriqlar.

“A’lo” guruhi:-kim? so’rog’iga javob bo’lgan so’zlar topish

Opa. Aka, o’qituvchi, shifokor, tikuvchi.

“Dono” guruhi:- kimlar? so’rog’iga javob bo’lgan so’zlar topish ?

Opalar, akalar, o’qituvchilar, tikuvchilar.

“Oqil” guruhi: nimalar? Javob bo’lgan so’zlar topish.

Daftarlar, kitoblar, qalamlar albomlar.

G’oliblar rag’batlantirildi.

( Jismoniy tarbiya daqiqalari.)

Sog’lomlashtirish mashqlari.

«**To’g’ri va tez aytish**» o’yini.

Lola, lola, lolalar.

Bola, bola, bolalar.

Lola, Bola kim?

Lolalar, bolalar, kimlar? So’roqlariga javob bo’ladi.

1-o’quvchi: Bolalar so’ziga qanday so’roq beramiz?

2-o’quvchi: Kimlar?

3-o’quvchi: Narsalarga qanday so’roq beramiz?

4-o’quvchi: Nima, nimalar?

**Uchinchi bosqich:** - Yangi mavzu.

Kishilarning ismi familyasi bosh harf bilan yoziladi.

“Oila” albomi ko’rsatiladi.



O’qituvchi: Tasvir asosida hikoya tuzing.

5-o’quvchi:

Bobo - Odil Olimov.

Buvi - Anora Malikova.

Dada- Ilhom Olimov

Ona – Barno Olimova

Qizi - Iroda Olimova

O'g'li – Sardor Olimov

6-o'quvchi: Kishilarning ismi shariflari qanday harflarda yoziladi?

7-o'quvchi: Ismi shariflar bosh harfda yoziladi. Darslikda berilgan mashqlarni bajarish.

“Do'stlar” albomi asosida hikoya tuzish.

“Kim to'g'ri va tez aytadi ” didaktik o'yini.

Bir daqiqada beshta do'stni ismi familiyasini aytish:



1-“A'lo” guruhi:

G'ofurova Taxmina,  
Jo'raeva Munisa,  
Alijonov Muslimbek,  
Shoxonov Diyorbek.

2-“Dono” guruhi:

G'ofurov Behzod,  
Baxtiyorov Saddam,  
Toshboev Toshpo'lat,  
Abduazizova Hafizamox.

3-“Oqil” guruhi:

Soibnazarov Islombek,  
Movlonqulova Zulayho,  
Ergasheva Kumush,  
Sayfullaev Zulfiqor,  
Mirkarimov Zokirjon.

Didaktik o'yin yakunlandi.

“Oqil” guruhi g'olib chiqdi va rag'batlantirildi

**To'rtinchi bosqich:** Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Zanjir” o'yini o'tkazilib, kishilar ismi, familiyasi topilib, daftarlarga yoziladi.

**Beshinchi bosqich:** - Baholash.

O'quvchilar darsdagi faolligi va mahorati inobatga olinib rag'batlantiriladi.

**Oltinchi bosqich:**

Uyga vazifa: 99-mashqni ishlash.

Rasmni kuzatib bolalarga ism qo'yish.

# Odobnoma

## Mavzu: Yaxshi fazilat-insonga ziynat

### Darsning tarbiyaviy maqsadi:

insoniy hislatlar, oily janoblik timsolini mazmunan mohiyatni anglash

### Darsning ta'limiy maqsadi:

Odob axloq mezonlarni mazmunan anglash

Yaxshi fazilat inson ziynati ekanlikni mazmunan anglash

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

Har tomonlama barkamolavlod timsolini o'zida mujasamlashtirish insoniy ijobiy fazilatlarini mukammal o'zlashtirish

### Dars turi:

Yangi bilim berish

### Dars tipi:

Noananaviy dars baxs munozara usuli

Dars jihozi:

Buklet, kartochkalar, multimediya

### Dars qaxramonlari:

Boshlovchi Fazilat, Ziynat

### Darsning borishi:

**Birinchi bosqich** -tashkiliy qism

O'quvchilarni guruhlariga bo'lish

“Zakovat guruhi”

“Oqil guruhi”

“Dono guruhi”

Guruhlariga bo'lindi

Boshlovchi:

O'quvchilar Sog'lom bola me'yorlarini bilasizlarmi

Badan tarbiya

Kuch etar hadiya

Hom suv ichma

Sog'liqdan kechma

Sog' tanda

Soglom aql.

**Ikkinchi bosqich:** o'tgan mavzu

Insoniy hislatlar

Boshlovchi:

Bugun sinfimizga Fazilat va Ziynat qizlarimiz tashrif buyurishgan

### O'quvchilar:

Assalom salom

Adab, ahloqli, andishali, adolatli,  
Sog'lom bolalardan salom!

### Fazilat:

Ijobiy insoniy hislatman, Ilmli, idrokli, iqtidorli qizman.

### Ziynat:

Insoniy oily hislatman. Istedotli iqbolli qizman.

Yaxshi fazilat-insonga ziynat. Ezgu maqsadlar qilamiz niyat.

### Fazilat:

“Zakovat” guruhiga “A” harfi bilan boshlanadigan insoniy hislatlar zid ma'nosi bilan topish.

Adab-adbsiz

Aqlli-aqlsiz

Andishali-andishasiz

Adolatli-adolatsiz

“Oqil” guruhi “O” harfi bilan boshlanadigan insoniy hislatlar zid ma’nosi bilan topish.

Oqibatli-oqibatsiz

Oriyatli-oriyatsiz

Orasta-e’tiborsiz

Oliyjanoblik-razil

“Dono” guruhi “I” harfi bilan boshlanadigan insoniy hislatlar zid ma’nosi bilan topish

Ilimli-ilimsiz

Insofli-insofsiz

Iqtidorli-iqtidorsiz

Iste’dodli-iste’dodsiz

Iymonli-iymonsiz

**Ziynat:**

O’quvchilar siz juda to’g’ri fikrlarini aytingiz

**Jismoniy daqiqa:**

Nafas olish mashqlari-gul hidlash mashqlari

Barg puflash mashqlari

Sham ochirish mashqlari

Multimediya yordamida mashq bajariladi

**Uchinchi bosqich:**

yangi mavzu-Yaxshi fazilat-insonga ziynat.

**O’qituvchi:**

Bolalar siz qanday yahshi fazilatlarni bilasiz?

**“Zakovat” guruhi**

Kamtarlik, Komillik, Ko’ngilchanglik

**“Oqil” guruhi**

Halollik, Himmatli bo’lish, Haqiqatgo’y bo’lish

**“Dono” guruhi**

Muloyim bo’lish, muomilali, Mehrli, Mahoratli, Madaniyatli, Ma’naviyatli bo’lish

**O’qituvchi:**

“Dono” guruhi 6 ta insoniy fazilatlarni bilishar ekan

**Boshlovchi:**

O’quvchilar biz Fazilat va Ziynat qizlarimiz ishtirokida “Munozara” bahsi o’tkazamiz

Shartimiz “Zakovat” guruhi orastalik me’zonini bilishlari lozim

-tozalik

-yarashgan kiyim

-sochlari taralgan

-mehnatdagi go’zalik

-uyni sarishta tutish

-o’quv qurollarni tartibli va ozoda saqlash

“Oqil” guruhi odob axloq me’zonlarni aytishlari lozim

-salom berish

-odobli bo’lish

-andishali bo’lish

-oqibatli bo’lish

-mehribon, g’amho’r bo’lish

-muloyim, muomiulali bo’lish

-o’zini va o’zgani qadirlash

“Dono” guruhi oliyjanoblik me’zonlarni aytishlari lozim

-barkamol bo’lish

-farosotli fazilatli bo’lish

-insonparvar vatanparvar bo’lish

-sabr matonatli bo’lish

-avlod-ajdodlariga munosib farzand bo’lish

-ota-onasini yuzini yorug’ etish

-komil-fozil salohiyatli bo’lish

Boshlovchi: Guruh sardorlari fikrlarni bayon etishgach g’oliblar aniqlanib “Sharaf” kartochkalari bilan rag’batlantiriladi.

**To’rtinchi bosqich:** Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Bahrabayn”-maqollar o’yini o’tkaziladi.

Yaxshi fazilat insonga-ziynat.

Odobing ziynating.

Odobli bola elga manzur.

Odob bozorda sotilmas.

Yaxshi so’z jon ozig’I

Yomon so’z jon qozig’i.

Yaxshi so’z qaymoqqa o’xshar

Yomon so’z to’qmoqqa o’xshar

**Beshinchi bosqich:**

O’quvchilar dars jarayonida faol, mustaqil, zukko, dono, zakovatli salohiyatlari baholanadi.

**Oltinchi bosqich:**

**Uyga vazifa:**

Insoniy yaxshi fazilatlarini o’ziga ziynat etish.

Har tomonlama dunyo qarashi boy barkamol inson bo’lish. Ilmiy, aqliy, ma’naviy salohiyatli Sog’lom fikrlovchi barkamol inson timsolini o’zida mujassamlantirish.

Ona tili

## **Mavzu: So’zlarni alifbo tartibida yozish**

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

Mantiqiy salohiyatini boyitish ijod etish mazmunini anglash.

**Darsning ta’limiy maqsadi.**

So’zlarni alifbo tartibida yozishga mahoratini oshirish so’z boyligini rivojlantirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:**

O’quvchilarda so’zlarni alifbo tartibida yozish malakasini oshirish. Har tomonlama nutq boyligini boyitish.

**Dars turi:** So’rov

**Dars tipi:** Noan’anaviy dars o’tish. Munozara bahs usuli

**Dars jihozi:** “Alifbo” “kesma harflar” “Mevalar” Rangli al’bom.

**Dars qahramonlari:**

Boshlovchi, Gulxanjon, G’unchaoy

**Darsning borishi.**

**Birinchi bosqich.** Tashkiliy qism:

Darsga tayyorlanish. Salomatlik me’zonlarini esga olish.

Salomlashish:

Salom, salom-assalom

Ustozlarga assalom

Barkamol sog'lom

Avloddan salom

Yil, oy, hafta, kun tahlili:

So'g'lom bola yilida

oyning 17 kunida

haftaning birinchi kunida

Xush kelibsiz Gulxanjonning sinfiga

**Boshlovchi:**

Bolalar "Sog'lom bola" deganda nimani tushunasiz?

O'quvchi:

Sog'lom, Iqtidorli,

Noyob Istedodli,

Oqil, Dono, Zakovatli,

Barkamol avlodni.

**Ikkinchi bosqich.** O'tgan mavzuni mustahkamlash.

**Gulxanjon:**

Bolalar keling "Zanjir o'yini" o'ynaymiz

**O'yinimizda**

1-qator **"Oqil" guruhi**

2-qator **"dono" guruhi**

3-qator **"Ijod" guruhi**

Alifboni navbat-ma navbat aytishadi.

O'quvchilar ifodali alifboni tartib bilan to'g'ri tallafuz etishlari lozim.

**"Zanjir"** didaktik o'yini yakunida g'oliblar aniqlanib rag'batlantirildi.

**Jismoniy daqiqqa:**

Lola,lola -sog'lom bola

Istedodli mahoratli

Lola,lola-sog'lom bola

Tartib-intizomli dono bola.

**Uchinchi bosqich .**Yangi mavzu bayoni.

So'zlarni alifbo tartibida yozish.

Gulhanjon bolalar kelinglar "Gul"sayliga chiqamiz. Gullar tilga kirganda

**"A"**Atirgul atrin sochadi.

Alvon ranglaring ochadi.

**"B"** Boychechagim,boychechak

Bahordan berding darak.

**"L"** Lola,lola alvon lola

Tog'larimiz chiroyingdan qizil lola

**G'unchaoy :**

Bahor fasli yangilashmoqda

O'rtoqlar gullar eking:

**O'qituvchi:**

Bolalar biz alifboni yod oldik. Keling “Kim topadi “didaktik” o’yini orqali. Mevalar nomlarini alifbo tartibida aytamiz

**“Alpomish va Barchinoy”** guruhlarini mevalar nomini aytadi.

Alpomish guruhi

Anor

Behi

Do’lana

Jiyda

Nok

Uzum

Shaftoli

Charos

“Barchinoy guruhi”

Anjir

Bodom

Gilos

Mandarin

Olma

O’rik

Shotut

60-mashq (yozma)

Nuqtalar o’rniga zarir harflarni qo’yib, so’zlaeni alifbo tartibida ko’chirish

Anjir, bodom, do’lana olxo’ri, tog’ olcha, yong’oq, shaftoli, shotut

61-mashq (mantiqiy)

**To’rtinchi bosqich.** Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Oq terak-mi ko’k terak” didaktik o’yini

Sinfdoshlari nomlarini alifbo tartibida aytish.

“Alpomish” guruhi.

Anvar

Azizbek

Abduvoid

Behzod

Bobojon

Diyorbek

Muslimbek

Islombek

Saddam

Toshpo’lat

Zulfiqor

Zokirjon

Shokarim

“Barchinoy” guruhi

Anora

Dilnoza

E’zoza

Hafizamox  
Kumush  
Munisa  
Mushtariy  
Nulifar  
Zulayho  
Shahzoda

**Beshinchi bosqich.** O'quvchilarni ijodiy salohiyatlarni baholash

**Oltinchi bosqich.** Uyga vazifa: 62-mashq

So'zlarni alifbo tartibida yozish, shu so'zlardan qatnashtirib

## **Odobnoma**

### **Mavzu: Yaxshi fazilat-insonga ziynat**

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarga Yaxshi fazilatlar inson ziynati ekanligini haqida tushuncha berish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarni odob axloq mezonlarni anglashga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Har tomonlama barkamol bo'lib voyaga etish uchun oliy fazilatlarini o'zida mujasamlashtirish lozimligini o'rgatish.

**Dars turi:** Yangi bilim berish.

**Darsning tipi:** Suhbat, bahs va munozara.

**Dars jihozi:** Mavzuga doir metodik materiallar, darslik buklet, kartochkalar, plakatlar.

**Darsning borishi:**

**Birinchi bosqich:** - Tashkiliy qism.

**Darsga tayyorlanish.** Salomatlik me'yolarini yodga olish.

Bolajonlar siz «Sog'lom bo'lish» me'yorlarini bilasizlarmi?

**1-o'quvchi:** Sog'lom bo'lish uchun badan tarbiya bilan shug'ullanishi kerak.

**2-o'quvchi:** Tozallikka rioya qilish kerak.

**3-o'quvchi:** O'z vaqtida yotib, o'z vaqtida turishga odatlanish lozim.

**4-o'quvchi:** Ovqatlanish qoidalariga rioya qilish maqsadga muvofiq.

**5-o'quvchi:** Bu haqda quyidagicha fikrlar bor. Masalan, xom suv iyama, sog'likdan kechma.

**6-o'quvchi:** Sog' tanda-sog'lom aql. O'qituvchi o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi

**Ikkinchi bosqich:** - **O'tgan mavzu.**

O'quvchilarni guruhlariga bo'lish va ularga nom berish.

**1. "Zakovat guruhi".**

**2. "Oqil" guruhi".**

**3. "Dono" guruhi**

**O'qituvchi:** Assalomu alaykum, bolajonlar! Bugungi darsimizda biz sizlar bilan

«Yaxshi fazilat-insonga ziynat» mavzusi yuzasidan fikrlashamiz. (O'qituvchi mavzuni tushuntiradi.)

**Oliy fazilatlar haqida suhbat uyushtirish.**

**O'qituvchi:** Aziz bolajonlar, bugun sinfimizdagi Fazilat va Ziynat ismli qizlarimiz sizlarga quyidagilarni aytib berishadi.

**Fazilat:** Adab, axloqli andisha, adolat kabi yaxshi soʻzlar hamisha yodingizda boʻlsin va ularga rioya qiling.

**Ziynat:** Ijobiy xislatliman,  
Hurmatli, izzatliman.

**Uchinchi bosqich: - Oʻqituvchi:**

“**Zakovat**” guruhiga; “A” harfi bilan boshlanadigan insoniy hislatlarni bildiruvchi soʻzlar va unga zid soʻzlar haqida gapiring.

Adab-adbsiz,  
aqlli-aqlsiz,  
andishali-andishasiz,  
adolatli-adolatsiz.

“**Oqil**” guruhi “O” harfi bilan boshlanadigan insoniy hislatlarga xos boʻlgan va unga zid boʻlgan soʻzlarhaqida fikringizni bildiring.

Oqibatli-oqibatsiz,  
oriyatli-oriyatsiz,  
orasta-eʻtiborsiz.

“**Dono**” guruhi “I” harfi bilan boshlanadigan insoniy fazilatlariga xos boʻlgan, va unga zid boʻlgan soʻzlar lugʻatini tuzing.

Ilmli-ilmsiz,  
insofli-insofsiz,  
iqtidorli-iqtidorsiz,  
isteʼdodli-isteʼdodsiz,  
iymonli-iymonsiz.

**Oʻqituvchi:** Rahmat, bolajonlar! Juda yaxshi fikrlarni bildirdilaring.

Endi jismoniya tarbiya daqiqalarini uyushtiramiz.

Nafas olish mashqlari-gul hidlash mashqlari.

Chang puflash mashqlari.

Sham oʻchirish mashqlari.

**Toʻrtinchi bosqich: -** Yangi mavzuni mustahkamlash.

**Beshinchi bosqich:** Oʻquvchilarni iqtidoriga, faoliligiga qarab baholash.

**Oʻqituvchi:** Bolajonlar, siz qanday yahshi fazilatlarini bilasiz?

“**Zakovat**” guruhi:

Kamtarlik, komillik, koʻngilchanglik.

“**Oqil**” guruhi: Halollik, himmatlilik, haqiqatgoʻylik.

“**Dono**” guruhi:

Muloyimlilik, muomulalik, mahoratlilik, madaniyatlilik, maʼnaviyatlilik.

**Oltinchi bosqich: -** Uyga vazifa: Mavzuga doir 4 tadan maqol yodlab kelish.

**Dars yakuni:** Oʻquvchilarni yaxshi fazilatlarini oʻzlarida mujassamlantirish.

## **Tarbiyaviy soat**

**Mavzu: Ustozim-eʼzozim**

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.** Oʻquvchilar qalbida ustozlarga ehtirom tuygʻusini shakllantirish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** Ustozlarning zaxmatli, ammo sharaflil mehnatlari haqida tushuncha berish.

**Rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarga ilm-ma'rifat bog'ining bog'bonlari, ya'ni ustozlar haqidagi fikr- mulohazalarini takomillashtirish.

**Tadbir o'tkaziladigan joyning jihozi:** Texnik vositalar, badiiy adabiyotlar, plakatlar, sharlar, gullar hamda quyidagi shiorlar.

**Odob ravshan chiroqdir anjumanda,  
Odob poklik dalili dil chamanda.**

**Hiloliy**

\*\*\*\*\*

**Kishikim ilmu fandan boxabardir,  
Xaloyiqqa boqadru mo'tabardir.**

**Furqat**

**Darsning metodi:** Suhbat.

**Darsning borishi:**

**Birinchi bosqich:** - Tashkiliy qism.

**Ikkinchi bosqich:** - O'tgan mavzu.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, muhtaram mehmonlar, aziz o'quvchilar! Hayotda har bir insonning o'zining munosib o'rni bo'ladi. Jumladan, bog'ni bog'bonsiz, hayotni o'qituvchisiz tasavvur qilish mumkin emas. O'qituvchi o'quvchilariga ta'lim-tarbiya beradi, ularning qalbiga ezguliklar urug'ini qadaydi. Ma'naviyatini shakllantiradi. Bugungi tarbiyaviy soatimiz beg'ubor bolaligimiz, umrimiz sahifalarida zarhal harflar bilan yozib qoldirishimizga arziydigan tabarruk insonlar o'qituvchiarimiz haqidaligini ehtirom bilan e'tirof etaman.

Serquyosh O'zbekistonimiz mustaqillikka erishganidan so'ng hukumatimiz rahbariyati tomonidan barcha kasb egalariga, ularning faoliyatiga e'tibor qaratildi. Muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi obro' va nufuzini mustahkamlash ularning sharaflil mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida qator chora –tadbirlarni ishlab chiqdi. Jumladan “1 –oktyabr –O'ituvchi va murabbiylar kuni”ning umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi.

**Uchinchi bosqich:** - Yangi mavzu.

Biz ham bugungi tarbiyaviy tadbirmizni hayotimiz quyoshlari bo'lgan ana shu aziz ustozlarimizga bag'ishlaymiz. (“Ustozlar” qo'shig'i qo'yib eshittiriladi.) O'qituvchi: Aziz bolajonlar endi odatdagiday so'z navbatini sizlarga beraman.

**1-o'quvchi:** Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar, hozir biz ustozlarga ta'rif berdik. Men ham shu fursatdan foydalanib barchangizni bugungi bayram bilan samimiy muborakbod etaman

**2-o'quvchi:** Sinfimiz jamoasini nomidan sihat-salomatlik, uzoq umr, baxt saodat tilayman.

**3-o'quvchi:** Endi ijozatlaringiz bilan sizlarga bag'ishlangan she'rlarimizni e'tiboringizga havol qilsak.

**4-o'quvchi:** **Bo'lsa aql chirog'i ilm,**

**Shu chiroqni yoqqan insonsiz.  
Qalbimizda abadiy qolib,  
E'zozlangan faxr va shonsiz.**

**5-o'quvchi:** Ko'ksimdadir ikki qo'lim,  
Sayrayotgan biyron tilim.  
Erinmasdan bergan bilim,  
Qadrdonim muallimim.

**6-o'quvchi:** Odob bilan yurishni,  
Shirin so'zli bo'lishni.  
O'qib, dono bo'lishni,  
O'rgatgan muallimim.

**7-o'quvchi:** Sizga mening, ehtiromim,  
Sizdan ravondir yo'lim.  
Ona tilim, o'z tilim,  
O'rgatgan muallimim.

**8-o'quvchi:** Mehr berib e'zozlab,  
Erkalatib, siz-sizlab.  
Nurga to'ldirgan dilim,  
Ustozim muallimim

**9- o'quvchi:** Tahsinlarimiz sizga,  
Mehribon, shirin so'zim.  
Bayramingiz muborak,  
Dillardagi e'zozim.

Milliy qadriyatlarimiz debochasi bo'lgan mehmondorchilik haqida sahna ko'rinishi namoyish etiladi.

**10 -o'quvchi:-Salima:** O'rtoqjonlar, kelinglar, endi "Mehmon-mehmon" o'ynaymiz.

**Bolalar:** Bo'pti. shodlikdan chapak chalishadi.

**Salima:** O'rta dasturxon yozadi va she'rlar aytishadi.

Keling, Ra'no, Muqaddas,  
Uyimizning to'ridan-  
Joy qilganmiz, bu xavas.  
Mehrimizning zo'ridan.  
Yozib oppoq dasturxon,  
Qand-qurs qo'yib siylaymiz.  
Kattalarday shodumon.  
Mehmon-mehmon o'ynaymiz.  
Faqat sizdan iltimos,  
Ko'nglingizga olmaysiz. Yonida-Naima.

**11-o'quvchi:** Choyimiz iliq xolos  
Nonimiz kam kulmaysiz.

Ko'nglimiz dunyo, ammo,  
Dunyo bug'doy so'zimiz.

12- o'quvchi:

Dasturxonga marhabo,  
Xizmatdamiz o'zimiz.  
Mehmonsiz, izzatdasiz,  
Mezbonmiz biz, tantimiz.  
Kamgina qolgan ekan,  
Eb qo'ymang-da qandimiz.  
Og'rimasin sizda dil,  
Og'ir olmang, bu hazil.

**13-o'quvchi:** Bahodir, arazlamay, kulib, dasturxonimizni to'ldirishni menga qo'yib  
berminglar. Mana faraz qiling men sotuvchi bo'laman. Do'konimdan sizlarga non  
qand beraman.

Choyga solib oq qandni,  
Rosa rohat qilaman.  
Hunarlar ko'p bilaman,  
Men sotuvchi bo'laman.

**Hamma o'quvchilar birgalikda:**

Mehmon kelsa qut bo'lar,  
Dasturxonlar but bo'lar.  
Qandli bo'lar choyimiz,  
Ko'p-ko'p bo'lar moyimiz.

**Sahnaga musiqa sadolari ostida kapgirini o'ynatib mehmonlar huzuriga oshpaz  
kirib keladi.**

14-o'quvchi:

Oshpaz bo'ldim men chaqqon,  
Kapgirim botdi yoqqa.  
Xohlang, sho'rva, osh bo'lsin,  
Kabob, manti, go'sht bo'lsin.  
Moshho'rdami, qiyinroq,  
Somsa, norin keyinroq.  
Keling, sho'rva suzayin,  
Ishtahangiz qo'zg'ayin.  
Sabzisi bor, to'g'ramli  
Karami bor o'ramli,  
Kartoshkasi qalamcha,  
Turfa sho'rva, olamcha...  
Oling-oling osh bo'lsin,  
Eganingiz go'sht bo'lsin.  
Go'shti qani deysizmi,  
Erib ketgan sho'rvada.

**To'rtinchi bosqich:** - Yangi mavzuni mustahkamlash.

Vatanimiz osmoni musaffo bo'lsin.  
Bayramlar-bayramlarga,

Xush damlar, xush damlarga ulashsin.

**Beshinchi bosqich:** - O'quvchilarning mehmon kutish mahoratiga qarab, rag'batlantirildi.

**Oltinchi bosqich:** - O'qituvchi:

Aziz bolajonlar bayramga yaxshigina tayyorgarlik ko'rib sizlar! Faol ishtirokingiz uchun rahmat.

Muhtaram mehmonlar! Tadbirimizga tashrifingiz uchun tashakkur!

Xayr, yaxshi boringlar.

**Tadbir yakuni:** Musiqa sadolari ostida tadbir yakunlanadi.

## **Tarbiyaviy soat**

**Mavzu: "Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan mustaqil O'zbekiston"**

**Ta'limiy maqsadi;** Vatan tuyg'usini mukammallashtirish vatan muqaddassligini mazmunan anglash.

**Tarbiyaviy maqsadi;** Ma'naviy salohiyatlarini boyitish Vatn ravnaqi, istiqboli mohiyatini anglash.

**Rivojlantiruvchi maqsadi;** Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Barkamol avlod timsolini yaratish.

**Dars jihozi;** "Mustaqillik maydoni" al'bomi buklet Prezident portireti davlatramzlari.

**Dars qahramoni;** Gulhanjon, Zakovat, Salohiyat.

**Dars turi;** So'rov

**Dars tipi;** Bahs.

**Darsning borishi.**

**Birinchi bosqich:** - Tashkiliy qism darsga tayyorlanish

Salomlashish – Salom, salom, Assalom!

Barchangizga assalom

Mustaqil yurt farzandi.

Barkamol avloddan salom

Boshlovchi: bolalar-o'quvchilar

**Maqsadingiz nedur** - Mustaqil yurtimizga munosib, barkamol farzand bo'lish

**Shioringiz nedur**- A'lo hulq, a'lo bilim

**Ikkinchi bosqich:** - Zakovat qizimiz darsga kirib keldi:

Men qaysi yurtga kelib qoldim.

**Gulhanjon:**

Siz mustaqil O'zbekistondasiz

**Zakovat:** vatanimiz qahramonlarni ayting

**1-o'quvchi:**

To'maris, Shiroq, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Pahlavon Mahmud,

**Gulhanjon:** vatan mathini tariflang.

**Vatan haqida qo'shiq** "Ko'hna Turon" "Qadim Turon" qo'shoqlari ijro etildi.

Vatan haqida rivoyat-hikoyatlar To'maris-Shiroq afsonasi aytiladi.

**Uchinchi bosqich:** - **Yangi mavzu**

**Zakovat bahsi**

Vatan haqida maqollar-“**Bahrobayn**”

1-o'quvchi

Ona yurtning omon bo'lsa

Rangi ro'ying somon bo'lmas

2-o'quvchi

Ona yurtning oltin beshigim

1-o'quvchi

Ona-vatan muqaddas

2-o'quvchi

Vatani borni baxti bor

1-o'quvchi

O'zga yurtda shoh bo'lguncha

o'z yurtningda gado bo'l

2-o'quvchi

Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir

Maqol aytishdan to'htagan o'quvchi mag'lub bo'ladi

**To'rtinchi bosqich:-** Bahs munozara

1 Vatan-ona-kabi-muqaddas

2 Buyuk va mustaqil vatan

3 buyuk va muqaddas vatan

4 Vatan-ona ostonasi oltin

**Beshinchi bosqich :** - Baholash o'quvchilarni ijodiy, ma'naviy, aqliy salohiyatlariga qarab rag'batlantiriladi

**Oltinchi bosqich:-** Uyga vazifa

O'quvchilar vatan tuyg'usini, vatan madhini mukkamal, mujassamlashtirish uchun oynayi jahon bayram namoyishlarni ko'rish tavsiya etiladi.

## **Matematika**

**Mavzu: 50 - 59 bo'lgan sonlar**

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

Mantiqiy fikirlashga o'rgatish

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

50- 59 sonlarni xona qo'shiluvchilarga ajratish

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:**

Ijodiy salohiyatlarni boyitish

**Dars turi:** So'rov

**Dars tipi:** musobaqa

**Dars jihozi:** ko'rgazma, kompyuter

**Dars qahramonlari:** Boshlovchi, Gulhanjon, Alpomish va Barchinoylar

**Darsning borishi**

**Birinchi bosqich:** - Tashkiliy qism: darsga tayorlanish

Bir, ikki, uch-o'tiramiz tinch.

Salom, salom -assalom  
Barchangizga- assalom  
O'qituvchi ustozlar  
Murabbiylarga salom  
Oy, kun, hafta ta'rifi  
Bugun yigirma-bir  
Yilning oyi ikki  
Juma kun hafta besh  
Sog'lom bolla yilida  
Faqat olamiz besh

**Jismoniy daqiqa** - Sog'lomlashtirish mashqlari.

**Ikkinchi bosqich:** - O'tgan mavzu: 40- 49 bo'lgan sonlar  
Boshlovchi-Gulxanjon kel "Alpomish va Barchinoylar" bilan  
"Oq terak-mi ko'k terak "o'yinini o'ynaymiz  
"Oq terak-mi ko'k terak "

Bizdan sizga kim kerak  
Barchinoylar.  
Bizga a'lochi Muslimbek kerak  
Barchinoylar.  
"Oq terak-mi ko'k terak"  
Bizdan sizga kim kerak  
Alpomishlar.

Bizga orasta Zulayho kerak  
Bellashuvda 40-49 sonlar o'nlik, birlikka ajratiladi.

|      |      |      |      |      |      |      |      |      |
|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| 41   | 42   | 43   | 44   | 45   | 46   | 47   | 48   | 49   |
| 40 1 | 40 2 | 40 3 | 40 4 | 40 5 | 40 6 | 40 7 | 40 8 | 40 9 |

Boshlovchi.  
Matematika faniga hissa qo'shgan Buyuk siymollarni bilasizmi?

Gulhanjon. Al Beruniy, Al Xorazmiy,  
Mirzo Ulug'bek bobollarmiz bizning sevimli fanimizga ko'p hissa qo'shishgan  
Boshlovchi.

Keling bobolarimiz tahsil olgan Registonga sayr etamiz.

**Uchinchi bosqich:** - Yangi mavzu: 50- 59 gacha bo'lgan sonlar

|      |      |      |      |      |      |      |      |      |
|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| 51   | 52   | 53   | 54   | 55   | 56   | 57   | 58   | 59   |
| 50 1 | 50 2 | 50 3 | 50 4 | 50 5 | 50 6 | 50 7 | 50 8 | 50 9 |

Sonlar tahlili yoziladi.

2-misol (og'zaki)

3-misol (yozma)

50va 4=54                      50va5=55

50va2=52                      50va8=58

4-misol (og'zaki)

**To'rtinchi bosqich:** - Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Zanjir" didaktik o'yini orqali 45-46-47 sonlar tarkibi ifoda ko'rinishida yoziladi  
40+5=45

$$40+6=46$$

$$40+7=47$$

5-masala (og'zaki)

**Beshinchi bosqich:** - Baholash

**Oltinchi bosqich:** - Uyga vazifa:

6-misol. 50dan 59gacha bo'lgan sonlarni hona qo'shiluvchilarga ajratishni mukammal, mazmunan anglash.

## Matematika

### Mavzu: Ayirishga doir misol va masalalar echish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarni ayirish usulini bajarishga o'rgatish. Misollar va tenglamalar echish malaka va ko'nikmani shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi** O'quvchilarning hisoblash malakasini oshirish, mavzuni o'zlashtirishga doir qo'shimcha mashqlar bajarish.

**Rivojlantiruvchi maqsadi:** Matematik nutqni rivojlantirish.

**Darsning turi:** Noan'anaviy.

**Darsning metodi:** Interfaol, didaktik o'yinlar. Darsning jihozi: Darslik mavzuga doir metodik materiallar. Rasmlar, maqollar, topishmoqlar va sh u kabilar.

**Darsning borishi:**

**Birinchi bosqich:-** Tashkiliy qism.

**1. Darsni tashkil etish.**

**Ikkinchi bosqich:-** O'tgan mavzu.

Uy vazifasini so'rash.

$$46-12=34$$

$$45-15=30$$

$$47-12=35$$

“Kim tez” didaktik o'yini8 o'tkazildi

**Quvnoq daqiga.**

**Sinf sardori:**

**Bizning quvnoq davraga,**

**Xush kelibsiz marhabo.**

**Matematika bilan,**

**Hamroh bo'ling doimo.**

**Matematika kerak,**

**Har bir o'g'il-u, qizga.**

**Aqlni va fikrini,**

**Soladi yaxshi izga.**

**Uchinchi bosqich:-** Yangi mavzu bayoni:

**Yangi mavzu:** Sonlarni ayirishga doir misol va masalalar echishmavzusini tushuntirish. O'quvchilarni mavzuq qoidasi bilan tanishtiriladi.

57

26

**1. O'nliklarni o'nliklar tagiga,  
birliklarni birliklar tagiga**

31

yoʻzaman.

2. Birliklarni birliklardan  
ayiraman.

326 – misollarni eching.

$$\begin{array}{r} \_99 \\ \underline{75} \\ \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \_99 \\ \underline{31} \\ \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \_65 \\ \underline{22} \\ \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \_47 \\ \underline{35} \\ \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \_56 \\ \underline{23} \\ \dots \end{array}$$

Maqtanchoq ayiqcha:

Qani aytingchi sizlar,  
Sonlar haqida maqol.

1-o'quvchi:

Etti o'lchab, bir kes.

2-o'quvchi:

Bir yigitga qiriq  
Hunar ham oz.

3-o'quvchi:

Bir orzu – o'n orzu bo'lolmaydi.

O'qituvchi: Rahmat, zukko bolajonlar endi sizlarga  
topishmoqlar aytaman.

1. Bo'ylari teng to'rt o'rtoq,

To'rtoviga bir qalpoq.

4-o'quvchi: Stol

2. Mehnat qilib tolmaydi,

Sira orom olmaydi.

5-o'quvchi: Soat.

To'rtinchi bosqich - Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Bozorda” mavzusidagi sahna ko'rinishi.

Xaridorva sotuvchi muloqoti: Rastaga sabzavot va mevalar qo'yilgan.

6-o'quvchi: Opajon, 1000 so'mimga daftar berib yuboring.

7-o'quvchi: Bu daftarlarning har biri 200 so'mdan turadi.

1000 so'mingizga qancha daftar berayin.



Komila: Albatta 5 ta daftar berasiz-da.

328 – masala.


O'qituvchi: 1 kg nok 6000 so'm tursa, 100 kg nok qancha turadi?

10 kg olma 3000 so'm tursa 1 kg olma qancha  
turadi?


O'qituvchi: Bolajonlar, bu shakllar bir – biridan nimasi bilan farq qiladi?



2



3



4

O'quvchilar: Farqlarini ayta boshladilar.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha mustaqil ish beradi.

$$X \cdot 2 = 4$$

$$X \cdot 5 = 10$$

O'qituvchi: Bolajonlar endi bilag'onlar mashqini davom ettiramiz.

**Savol:** U shoxdadir etti qush,  
Bu shoxdadir ikki qush.  
Uchib ketsa beshtasi,  
Shoxda qolar nechitasi?  
Shoxda qolar to'rttasi,

**8-o'quvchi:** Oyim berdi 10 ta olma.  
O'zimda ham beshta bor.  
Sanab bo'lsang ayta qol,  
Menda nechta olma bor?

**9-o'quvchi:** 15 ta.

**O'qituvchi:** "Oltin toj" o'yinini o'tkazish.

Bu o'yinda uch o'quvchi chiqadi. Karra jadvalidan savol beriladi.

Chaqqonlik bilan topgan o'quvchi oldinga qadam tashlaydi. Shu holatn uch marta takrorlaydi.

G'olib o'quvchi "Oltin toj" egasi hisoblanadi. O'quvchilar baholanadi

**Beshinchi bosqich:-** O'quvchilarni hisob malakasini inobatga olib rag'batlantirilib baholanadi.

. **Oltinchi bosqich:** - Uyga vazifa: 331-misolni ishlab kelish.  
O'tilgan mavzuni takrorlash.